

**O‘ZBEKISTONNING “YASHIL” IQTISODIYOT SHAROITIDA
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI
BOSHQARISH MASALALARI**

Tadqiqotchi Yuldasheva Nazokat Muzaffar qizi

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini samarali boshqarish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda davlat siyosati, ekologik modernizatsiya, raqamli texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va barqaror ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, innovatsion faoliyat, sanoat korxonalari, boshqaruv, barqaror rivojlanish, ekologik samaradorlik

Аннотация. В данной тезисе рассматриваются вопросы эффективного управления инновационной деятельностью промышленных предприятий в условиях перехода Республики Узбекистан к «зелёной» экономике. В исследовании проанализированы основные направления государственной политики, экологической модернизации, внедрения цифровых технологий, использования возобновляемых источников энергии и формирования устойчивых производственных систем.

Ключевые слова: зелёная экономика, инновационная деятельность, промышленные предприятия, управление, устойчивое развитие, экологическая эффективность

Abstract. This thesis explores the issues of effective management of innovative activities in industrial enterprises within the framework of the “green” economy in the Republic of Uzbekistan. The study analyzes the main directions of state policy, ecological modernization, implementation of digital technologies, use of renewable energy sources, and formation of sustainable production systems.

Keywords: green economy, innovation activity, industrial enterprises,

management, sustainable development, ecological efficiency

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ–186-son “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish va uglerod chiqindilarini kamaytirish vazifalari belgilangan.

Bugungi kunda sanoat sektori O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 33 foizini tashkil etadi va iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida qaraladi. Shu bilan birga, sanoatning atrof-muhitga ta'siri ham yuqori darajada bo'lib, chiqindilar, energiya sarfi va tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan, innovatsion boshqaruv mexanizmlari sanoat korxonalarida “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishda hal qiluvchi o'rin tutadi¹.

“Yashil” iqtisodiyot — bu ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni birlashtirgan rivojlanish modeli bo'lib, unda innovatsion texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik toza qilish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Masalan, 2024-yilda O'zbekiston sanoatining umumiy ishlab chiqarish hajmida “yashil” texnologiyalar ulushi 17 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2030-yilgacha kamida 30 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan². Shuningdek, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va Germaniya xalqaro hamkorlik agentligi (GIZ) bilan birgalikda O'zbekistonda “Green Industrial Transformation” dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur doirasida 2022–2024-yillarda 30 dan ortiq sanoat korxonalari ekologik samaradorlikni oshirish bo'yicha texnik ko'mak olgan.

O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida sanoatning ulushi 33 foizni, xizmatlar sektori 45 foizni, qishloq xo'jaligi 17 foizni tashkil etadi. Demak, iqtisodiy tizimning asosiy og'irligi aynan sanoat tarmog'iga to'g'ri keladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–186-son qarori, 2023-yil 31-may.

² World Bank (2024). *Green Transition in Central Asia: Opportunities and Challenges*.

<https://scientific-jl.com/>

So'nggi yillarda "O'zeltexsanoat", "O'zneftgaz", "O'zsuvta'minot" kabi yirik tarmoqlarda "yashil" texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, "O'zavtosanoat" tizimidagi korxonalarda chiqindilarni qayta ishlash darajasi 12% dan 25% ga oshgan, energiya tejankor uskunalarning ulushi esa 40% ga yetgan³.

Sanoatning ekologik yuklamasini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish orqali "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini amalda qo'llash mumkin. Bu jarayon davlat siyosati, xususiyl sektor ishtiroki va ilmiy-tadqiqot ishlari o'rtasidagi hamkorlikni talab etadi⁴.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida sanoat korxonalarining innovatsion faolligini boshqarish davlat siyosati va xususiyl sektor o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan harakatni talab etadi. Quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Har bir yirik sanoat korxonasida "Yashil innovatsiyalar bo'limi" tashkil etish.
2. Innovatsion loyihalarni soliq imtiyozlari va grant dasturlari orqali rag'batlantirish.
3. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda "yashil obligatsiyalar" bozorini shakllantirish.
4. Ekologik menejment tizimi (ISO 14001) ni keng joriy etish.
5. Ilmiy-tadqiqot muassasalari va universitetlarni korxonalarga bevosita bog'lovchi "Innovatsion platforma" tizimini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-186-son qarori, 2023-yil 31-may.
2. World Bank (2024). *Green Transition in Central Asia: Opportunities and

³ "O'zavtosanoat" AJ ekologik hisobotlari, 2023-yil.

⁴ Ekologik menejment tizimi (ISO 14001) ni keng joriy etish

<https://scientific-jl.com/>

Challenges*.

3. OECD (2023). *Green Innovation Policy Framework*.
4. UNIDO (2024). *Sustainable Industrial Development Report*.
5. Karimov, A. (2023). “Yashil iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi.” *TDIU ilmiy jurnali*, №4.
6. “O‘zavtosanoat” AJ ekologik hisobotlari, 2023-yil.